

MAMLAKATIMIZ HUDUDIDA JOYSHALGAN ZIYORAT TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH HAQIDA

Ismetov R. A.

Innovatsion texnologiyalar universiteti

Butun dunyoda g'oyaviy va informatsion kurashlar avj olayotgan bir davrda, turli xalqlarga xos madaniy merosni saqlash borasidagi ilmiy izlanishlar dolzarbligicha qolmoqda, chunki bu jarayon turli xalqlarning madaniy turmushini chuqur anglash imkonini beradi. Shu bois ham zamonaviy jahon etnologiyasida jamiyat hayotidagi barcha jarayonlar emas, balki etnos va madaniyatning o'ziga hos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda turli mintaqalarda madaniyatlarni tadqiq qilishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Mana shu jihatdan, etnologik tadqiqotlar madaniy merosni saqlash va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlashning ayniqsa ziyorat turizmini rivojlantirish muhim bolib hisoblanadi.

Bu borada Prezident Sh.M.Mirziyoevning O'zbekistonda joylashgan ziyoratgohlarda turistlik imkoniyatlarni yaratish bo'yicha aytilgan so'zlari mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi: "O'zbekiston ham sayoxat, ham ziyorat uchun qulay mamlakat hisoblanadi. Chunki ona zaminimizda butun dunyoga ma'lum va mashhur bo'lgan ajdodlarimiz mangu qo'nim topgan. Ular qoldirgan boy ma'naviy-madaniy merosga xalqaro maydonda qiziqish juda katta" [1].

O'zbekiston hududida joylashgan moddiy va ma'naviy boyliklar, jumladan dunyoga belgili bo'lgan muqaddas ziyoratgohlarning mavjudligi uni dunyoning muhim tsivilizatsiya beshiklaridan biri sifatida tan olishga undaydi. Qoraqalpog'iston hududida joylashgan muqaddas qadamjolarini va bu ziyoratgohlar bilan bog'liq qarashlar hamda bu joylarda o'tkaziladigan marosimlarni etnologik, tarixiylik va dinshunoslik kabi fanlararo yondashuv asosida o'rganish dolzarb masala hisoblanadi. Mana shu an'analarni tushunish nafaqat madaniy xususiyatlarni saqlab qolish, balki ijtimoiy integratsiya va rivojlanishning samarali strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Bu esa global muammolar doirasida qaralganda juda muhim masala sanaladi. Qoraqalpog'istonda muqaddas qadamjolarining transformatsiyasi masalasi bo'yicha olib borilayotgan etnografik tadqiqotlar nafaqat ilm-fan sohasida, balki mahalliy xalq turmush tarzini aks ettiruvchi, madaniy me'ros masalalariga qaratilgan fanlarni amaliyotga tatbiq etishga ham xizmat qilmoqda. Shu munosabat bilan hozirgi kunda bunday sayyohlik imkoniyatlaridan samarali foydalanish so'nggi yillarda katta e'tiborga olinib, qator Farmon va qarorlar qabul qilinib, sezilarli darajada ishlar olib borilmoqda. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6165-son Farmoni, 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni, 2023 yil 26 apreldagi "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-135-son qarori, 2023 yil 27 iyuldagi "Turizm sohasidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-238-son qarori, 2024 yil 12 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida ekologik turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-9-sonli Farmonlari turizm sohasida katta imkoniyatlar yaratmoqda[2]. Shu asosda Qoraqalpog'iston hududidagi turistik imkoniyatga ega madaniy meros obyektlari soni tumanlar kesimida ko'rib chiqildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasidagi Moddiy madaniy meros obyektlarining milliy ro'yxatga kiritilganlar soni						
№	Tumanlar	Jami	Arxeologiya	Arxitektura	Monumentlar	Diqqatga sazovor joylar
1	AMUDARYO TUMANI	13	4	1	7	1
2	BERUNIY TUMANI	27	16	5	4	2
3	BO'ZATAU TUMANI	7	3	1	1	2
4	CHIMBOY TUMANI	9	0	0	6	3
5	ELLIKQALA TUMANI	37	21	1	10	5
6	KEGEYLI TUMANI	11	0	2	6	3
7	MO'YNOQ TUMANI	13	2	2	4	5
8	NUKUS TUMANI	10	4	0	3	3
9	NUKUS SHAHRI	16	3	0	6	7
10	QANLIKO'L TUMANI	7	1	0	5	1
11	QO'NG'IROT TUMANI	51	39	1	7	4
12	QORAO'ZAK TUMANI	20	8	2	4	6
13	SHO'MANAY TUMANI	7	2	0	5	0
14	TAXIATASH TUMANI	4	0	0	4	0
15	TAXTAKO'PIR TUMANI	12	9	0	1	2
16	TO'RTKO'L TUMANI	27	14	2	10	1
17	XO'JAYLI TUMANI	17	5	7	5	0
	JAMI	288	131	24	88	45

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 4 oktyabrdagi 846-sonli qarori bilan Qoraqalpog'iston Respublikasidagi 288 ta moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish maqsadida jamoat inspektorini birlashtirish bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniy meros boshqarmasi hamda Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi tomonidan 2022 yil avgust oyida qo'shma qaror qabul qilinib, qaror asosida har bir tumanda joylashgan jami 288 ta madaniy meros obyekti inspektorlar birlashtirildi va nazoratga olindi. Bu madaniy meros obyektlarining xavfsizligini ta'minlash, ularga insonlar va boshqa holatlar orqali zarar yetkazilishini kamaytirishga qaratilgan[3].

So'nggi yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasida ziyorat turizmiga qaratilayotgan e'tibor natijasida bu soha yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Mahalliy va xorijiy turistlariga xizmat ko'rsatish sifatining yaxshilanishi respublika imijini

shakllantirish yo'lida muhim omil bo'lib xizmat qilsa, ziyorat amallarini bajarish, ziyorat odobi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar odamlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shunga qaramay, ziyoratchilar tomonidan yo'l qo'yilayotgan xatolar va ziyorat turizmini tashkil etish borasida ayrim muhim va shaxsiy kamchiliklar mavjudligi ko'zga tashlanmoqda. Bunday muammolarni bartaraf etish ziyorat mavsumini samarali tashkil etish, ichki turizmni rivojlantirish imkoniyati bilan bir qatorda, mamlakat iqtisodiyotiga salmoqli investitsiya kiritilishiga ham xizmat qiladi. Ziyoratchi va sayyoh tushunchalari o'zaro bog'liq bo'lib, ziyoratchilar ma'naviy qoniqish olish maqsadida muqaddas qadamjolarga borishsa, sayyohlar esa madaniy va tarixiy ahamiyatga ega joylarni ko'zdan kechiradilar. Shuningdek, ziyoratchilar tashrif davomida diniy marosimlarga e'tibor qaratsalar, sayyohlar asosan madaniy-ma'rifiy jihatlariga qiziqadilar. Jahon turizm bozori doirasida ziyorat turizmi alohida o'rin egallaydi va global iqtisodiyotda muhim daromad manbalaridan biri hisoblanadi. Ziyoratchilarning asosiy ehtiyojlari ovqatlanish, turar joy, davanish, madaniy xizmatlar hamda qo'shimcha xizmatlar orqali qondiriladi.

O'zbekiston, xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasida ziyorat turizmi rivojlanib, xorijiy va mahalliy sayyohlar oqimi ortib bormoqda. Ayniqsa, tarixiy yodgorliklar va ziyoratgohlarning rekonstruksiya qilinishi, qulay transport tizimining yo'lga qo'yilishi va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi natijasida ushbu yo'nalish yanada taraqqiy etmoqda. Shu sababli, ziyorat turizmi iqtisodiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etib, mamlakatimizda turizmning barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ziyorat turizmi tarixiy va zamonaviylikni o'zida mujassam etgan ijtimoiy, iqtisodiy, ma'rifiy jarayondir. Qadimdan mavjud ziyoratning sayyohlik bilan qo'shilishi uni nafaqat diniy, balki dunyoviy sayohatga aylantirdi. Diniy motivlar bilan birga dunyoviy motivlar ziyoratchilar hayotiga kirib bordi. Tanishuv, yangi bilimlarga ega bo'lish, estetik zavq olish, ijtimoiylashuv kabi omillar ziyoratchilarning tashrif maqsadiga aylandi. Ziyoratchining o'rnini ziyoratchi sayyoh, ziyoratning o'rnini ziyorat turizmi egalladi. Ziyoratchilar ziyorat maqsadida, sayyohlar sayohat maqsadida kelishmoqda. Lekin bugun ular birlashib umumiylikka ega bo'lyapti. Diniy yo'nalishdagi sayohat dunyo mamlakatlarida turlicha tushunilsada, lekin mazmuni bir xil ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёев. Ўзбекистонда туризмни янада ривожлантириш масалалари ҳақида // Халқ сўзи. 2017 йил 4 октябрь, 199 (6893) –сон. –Б.1.
2. Ўзбекистон Республикаси Министрлар Кабинетининг 2019-жылы 4-октябрдеги 846-санлы қарары. <https://www.lex.uz>
3. <https://www.lex.uz>

Mamlakatimiz hududida joyshalgan ziyorat turizm sohasini rivojlantirish haqqida

Annotatsiya. Hozirgi kunda mamlakatimizda turizm sahosi rivojlantirish bo'yicha bir qancha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqta. Ayniqsa ziyorat turizmini rivojlantirishga bog'liq qaror va farmonlar qabul qilinmoqta ziyorat turizm sahosi rivojlantirish bugungi kunda eng dolzarb ahamiyatga ega saholaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Kalt so'zlari: Farmonlar, qarorlar, Turizm sahosi, tasavvub, Islom dini, avliyo.

О развитии сферы паломнического туризма, расположенного на территории нашей страны

Аннотация. В настоящее время в нашей стране проводится масштабная работа по развитию сферы туризма. В частности, принимаются постановления и указы, связанные с развитием паломнического туризма. Развитие сферы паломнического туризма на сегодняшний день является одной из самых актуальных сфер.

Ключевые слова: Указы, постановления, сфера туризма, суфизм, ислам, святой.

On the development of the pilgrimage tourism sector located within the territory of our country

Abstract. Currently, large-scale work is being carried out in our country to develop the tourism sector. In particular, resolutions and decrees related to the development of pilgrimage tourism are being adopted. The development of the pilgrimage tourism sector is one of the most relevant areas today.

Brief words: Decrees, resolutions, tourism sector, Sufism, Islam, saint.